ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 348 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar..... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash..... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari..... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI MENEJERLARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI TASHXISLASHNING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 37-sonli DMTT direktori
lobarabdumuminova37@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislash metodik ta'minotini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Intellektual salohiyatni baholashning kognitiv-tahliliy, muammolarni hal qilish, ijodiy-innovatsion, kommunikativ va refleksiv mezonlari tizimlashtirilgan. Tahliliy hamda vaziyatli topshiriqlar, kuzatish va refleksiv tahlilga asoslangan diagnostik vositalarning imkoniyatlari ochib berilgan.

Tashxislash natijalarini individual rivojlanish xaritasi bilan bog'lovchi bosqichli metodik yondashuv taklif etilgan. Ushbu yondashuv menejerlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, baholashning xolisligini ta'minlash zaruratini asoslaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, intellektual salohiyat, pedagogik diagnostika, baholash mezonlari, metodik ta'minot, individual rivojlanish xaritasi.

Abstract: This article addresses the issues of improving the methodological support for diagnosing the intellectual potential of managers of preschool educational organizations. Cognitive-analytical, problem-solving, creative-innovative, communicative, and reflective criteria for assessing intellectual potential are systematized.

The possibilities of diagnostic tools based on analytical and situational tasks, observation, and reflective analysis are revealed. A step-by-step methodological approach linking diagnostic results with an individual development map is proposed. This approach is aimed at identifying managers' professional development needs and improving their managerial competencies, while substantiating the need to ensure objectivity in assessment.

Key words: preschool education, intellectual potential, pedagogical diagnostics, assessment criteria, methodological support, individual development map.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы совершенствования методического обеспечения диагностики интеллектуального потенциала менеджеров дошкольных образовательных организаций. Систематизированы когнитивно-аналитические, проблемно-ориентированные, творческо-инновационные, коммуникативные и рефлексивные критерии оценки интеллектуального потенциала. Раскрыты возможности диагностических инструментов, основанных на аналитических и ситуационных заданиях, наблюдении и рефлексивном анализе.

Предложен поэтапный методический подход, связывающий результаты диагностики с индивидуальной картой развития. Данный подход направлен на выявление потребностей менеджеров в профессиональном развитии и совершенствование управленческих компетенций, а также обосновывает необходимость обеспечения объективности оценки.

Ключевые слова: дошкольное образование, интеллектуальный потенциал, педагогическая диагностика, критерии оценки, методическое обеспечение, индивидуальная карта развития.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarining takomillashuvi ta'lim tashkiloti menejerlarining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularning intellektual imkoniyatlariga ham yangicha talablar qo'ymoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish menejerdan turli mazmundagi axborotlarni tahlil qilish, boshqaruv vaziyatlarini baholash hamda asoslangan qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Ayniqsa, tashkilot faoliyatida yuzaga keladigan muammolarning sabablarini aniqlash, ularning ehtimoliy oqibatlarini oldindan baholash va muqobil yechimlarni ishlab chiqish rahbarlik faoliyatining intellektual jihatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli menejerning kasbiy salohiyatini faqat egallagan bilimlari, ish tajribasi yoki bajarilgan vazifalar hajmi orqali baholash yetarli bo ,lmay, uning fikrlash jarayonlari va boshqaruv faoliyatida namoyon bo'ladigan intellektual ko'nikmalarini ham o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur zarurat menejerlarning intellektual salohiyatini tashxislash masalasiga kompleks yondashishni taqozo etadi. Intellektual salohiyat menejerning bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatlari, tahliliy hamda ijodiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi, axborotni qayta ishlashi va o'z faoliyati natijalarini tanqidiy baholash qobiliyatlarining o'zaro bog'liq majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu ko'nikmalarning rivojlanish darajasini aniqlash menejerning kasbiy faoliyatidagi ustuvor imkoniyatlarini belgilash bilan birga, qo'shimcha rivojlantirishni talab etadigan jihatlarni ham aniqlashtirishga xizmat qiladi. Biroq tashxislash jarayonini faqat test topshiriqlari yoki umumiy so'rovnomalar bilan cheklash intellektual salohiyatning amaliy boshqaruv vaziyatlarida namoyon bo'ladigan xususiyatlarini to'liq ochib bermasligi mumkin. Shu bois diagnostik vositalarning mazmunini menejerning kasbiy vazifalariga moslashtirish, baholash mezonlarini aniqlashtirish va turli metodlardan olingan natijalarni o'zaro qiyoslash muhim metodik talab hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislash masalasining nazariy asoslari intellekt, kasbiy kompetentlik va boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilish jarayonlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, amerikalik psixolog R. Sternberg o'zining Successful Intelligence: How Practical and Creative Intelligence Determine Success in Life (1997) asarida muvaffaqiyatli intellektni tahliliy, ijodiy va amaliy qobiliyatlarning o'zaro uyg'unligi orqali izohlaydi.

Olimning mazkur yondashuvi menejerning intellektual salohiyatini faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, yangi yechimlarni ishlab chiqish va mavjud bilimlardan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyatlari orqali baholash zarurligini asoslashga xizmat qiladi. Shu jihatdan intellektual salohiyatning kognitiv-tahliliy, muammolarni hal qilish va ijodiy-innovatsion tarkibiy qismlarini ajratish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kasbiy faoliyatiga xos intellektual ko'nikmalarni tizimli o'rganish imkonini beradi.

Biroq Sternberg tomonidan ishlab chiqilgan umumiy nazariy yondashuvni maktabgacha ta'lim menejmenti sharoitida qo'llash uchun uning tarkibiy jihatlarini rahbarlik vazifalariga mos diagnostik ko'rsatkichlar orqali aniqlashtirish talab etiladi.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning ilmiy-metodik asoslari T. I. Shamova, P. I. Tretyakov va N. P. Kapustin qarashlarida ham uchraydi. Ularda ta'lim tizimlarini boshqarishning tashkiliy-pedagogik xususiyatlari, boshqaruv jarayonlarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish masalalari tahlil etilgan. Ushbu qarashlar maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerining intellektual salohiyatini uning boshqaruv vazifalaridan ajratmagan holda baholash zarurligini tushuntirishga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Diagnostik baholashning ilmiy ishonchliligi masalasida esa Amerika ta'lim tadqiqotlari assotsiatsiyasi (AERA), Amerika psixologiya assotsiatsiyasi va Ta'limdagi o'lchash bo'yicha milliy kengash (NCME) tomonidan ishlab chiqilgan Standards for Educational and Psychological Testing (2014) muhim metodik manba hisoblanadi. Ushbu standartlarda baholash vositalarining validligi, ishonchliligi, natijalarni talqin qilish asoslari hamda baholash jarayonining adolatliligiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur talablar menejerlarning intellektual imkoniyatlarini aniqlashda diagnostik topshiriqlar mazmunini kasbiy faoliyatga moslashtirish, kuzatiladigan ko'rsatkichlarni belgilash va baholash natijalarining xolisligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Intellektual salohiyatni tashxislash metodikasini takomillashtirishda turli tadqiqot metodlaridan olingan ma'lumotlarni o'zaro bog'lash masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. J. W. Creswell va V. L. Plano Clarkning Designing and Conducting Mixed Methods Research (2018) asarida miqdoriy hamda sifat yondashuvlarini integratsiyalash, turli manbalardan olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish va tadqiqot xulosalarini kompleks asoslashning metodologik imkoniyatlari yoritilgan.

Ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini baholashda tahliliy va vaziyatli topshiriqlar natijalarini kuzatish, yarim tuzilgan suhbat hamda refleksiv tahlil ma'lumotlari bilan birgalikda o'rganish uchun metodik asos yaratadi. Ko'rib chiqilgan ilmiy manbalar intellektual qobiliyatlarni nazariy jihatdan tavsiflash, ta'lim tizimini boshqarish va diagnostik baholashning ilmiy talablarini belgilashga xizmat qilsa-da, ularda maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini aynan kasbiy boshqaruv vaziyatlari asosida tashxislashga mo'ljallangan yagona metodik tizim bevosita ishlab chiqilmagan.

Shu sababli kognitiv-tahliliy, muammolarni hal qilish, ijodiy-innovatsion, kommunikativ va refleksiv mezonlarni tegishli diagnostik vositalar bilan bog'lash, baholash natijalarini individual rivojlanish xaritasida aks ettirish hamda qayta tashxislash orqali kasbiy rivojlanish dinamikasini aniqlash mazkur maqolaning asosiy ilmiy-metodik yo'nalishini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish masalasi ham juda muhim. Mazkur jarayon tashxislash maqsadini belgilash, intellektual ko'nikmalarning tarkibiy jihatlarini aniqlashtirish, ularga mos ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, diagnostik topshiriqlarni amaliy sinovdan o'tkazish va olingan natijalardan kasbiy rivojlanishni rejalashtirishda foydalanishni qamrab oladi.

Bunda metodik ta'minotning ilmiy asoslanganligi, baholash tartibining xolisligi va natijalarning amaliy ahamiyati o'zaro uyg'un holda ta'minlanishi zarur. Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashga xizmat qiluvchi metodik vositalarning tarkibiy mazmunini tizimlashtirish, diagnostik mezonlar va ko'rsatkichlarni aniqlashtirish hamda tashxislash natijalarini individual kasbiy rivojlanish jarayoni bilan bog'lashning metodik mexanizmini asoslashdan iborat.

Menejerlarning intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini shakllantirishda dastlab uning mazmuniy va funksional chegaralarini belgilash muhimdir. Metodik ta'minot tashxislashning maqsadi, tamoyillari, baholash mezonlari, ko'rsatkichlari, diagnostik vositalari va natijalarni talqin qilish tartibini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida qaraladi. Ushbu tizimning asosiy vazifasi menejerning intellektual imkoniyatlari haqida umumiy tasavvur hosil qilish emas, balki uning muayyan boshqaruv vaziyatlarida qanday fikrlashi, axborotdan qay tarzda foydalanishi, qarorlarini nimalarga asoslanib qabul qilishi va faoliyat natijalariga qanday munosabat bildirishini aniqlashdan iborat.

Bunday yondashuv intellektual salohiyatni faqat nazariy bilimlar darajasida emas, balki kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan ko'nikmalar majmui sifatida o'rganish imkonini beradi. Shu sababli diagnostik topshiriqlarni ishlab chiqishda menejerning kundalik boshqaruv vazifalari, tashkilotning tashkiliy imkoniyatlari va pedagogik jamoa faoliyatining xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Metodik ta'minotning mazkur mazmunidan kelib chiqib, intellektual salohiyatni tashxislashning beshta asosiy mezonini ajratish mumkin. Kognitiv-tahliliy mezon axborotni tushunish, taqqoslash, umumlashtirish va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash ko'nikmalarini qamrab olsa, muammolarni hal qilish mezoni boshqaruv vaziyatlarini baholash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va asoslangan qaror qabul qilish bilan tavsiflanadi.

Ijodiy-innovatsion mezon menejerning yangicha g'oyalarni ilgari surishi hamda ularni mavjud sharoitga moslashtirish imkoniyatlarini, kommunikativ mezon esa axborotni to'g'ri talqin qilish, o'z fikrini asoslash va jamoaviy muhokamada turli qarashlarni hisobga olish qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiv mezon menejerning qabul qilingan qarorlar natijasini tahlil qilishi, kamchiliklarning sabablarini aniqlashi va keyingi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar chiqarishini nazarda tutadi.

Mazkur mezonlar bir-biridan mustaqil baholash yo'nalishlari sifatida belgilansa-da, amaliy boshqaruv faoliyatida ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ularning mazmuni, kuzatiladigan ko'rsatkichlari va diagnostik vositalar bilan aloqadorligi tizimlashtirilishi maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval: **Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislash mezonlari va metodik vositalari**[1]

Diagnostik mezon	Kuzatiladigan ko'rsatkichlar	Metodik vositalar	Baholashning asosiy yo'nalishi
Kognitiv-tahliliy	Axborotni solishtirish, muammo sabablarini aniqlash, mantiqiy xulosa chiqarish	Tahliliy topshiriq, axborot bilan ishlash mashqi	Tahlilning izchilligi va xulosaning dalillarga asoslanganligi
Muammolarni hal qilish	Vaziyatni baholash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, qarorni asoslash	Vaziyatli topshiriq, boshqaruv keyslarini tahlil qilish	Tanlangan yechimning muammoga va mavjud sharoitga mosligi
Ijodiy-innovatsion	Yangi g'oyalarni taklif etish, muqobil yondashuvlarni ishlab chiqish	Ochiq topshiriq, amaliy loyiha	Taklifning yangiligi, asoslanganligi va amalga oshirish imkoniyati
Kommunikativ	Fikrni aniq ifodalash, turli qarashlarni tahlil qilish, muloqotda dalillardan foydalanish	Yarim tuzilgan suhbat, kuzatish varaqasi	Muloqotning mazmuniy aniqligi va hamkorlikka yo'naltirilganligi
Refleksiv	Qaror natijalarini tahlil qilish, xatolar sababini aniqlash, rivojlanish ehtiyojini belgilash	Refleksiv tahlil varaqasi, o'zini o'zi baholash	O'z faoliyatini tanqidiy baholash va asosli rivojlanish rejasini ishlab chiqish

1 Jadvaldagi ko'rsatkichlar taklif etilayotgan diagnostik mezonlarni ifodalaydi; ularning o'lchov xususiyatlari amaliy sinov orqali tekshirilishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadvalda keltirilgan mezonlar intellektual salohiyatning turli jihatlarini baholash imkonini bersa-da, ularning amaliy ahamiyati har bir ko‘rsatkichning qanday aniqlanishi va olingan ma’lumotlarning qay tarzda talqin qilinishiga bog’liq. Masalan, menejerning tahliliy fikrlashini baholashda faqat to‘g’ri javobni aniqlash yetarli bo‘lmay, uning mazkur xulosaga qanday kelgani, qaysi dalillardan foydalangani va muammoning muhim jihatlarini qay darajada ajrata olgani ham hisobga olinishi lozim.

Xuddi shuningdek, muammoli vaziyatda qaror qabul qilishni baholashda tanlangan yechimning o‘zi bilan bir qatorda muqobil variantlarning ko‘rib chiqilishi, ehtimoliy oqibatlarning baholanishi va mavjud resurslarning inobatga olinishi muhimdir. Bunday yondashuv diagnostik topshiriqlarning mazmunini boshqaruv faoliyatiga yaqinlashtiradi va menejerning fikrlash jarayonini kuzatiladigan ko‘rsatkichlar orqali tavsiflash imkonini kengaytiradi.

Diagnostik mezonlarning amaliy ifodasini ta’minlash esa bir nechta metodik vositadan o‘zaro uyg’un holda foydalanishni talab etadi. Jumladan, tahliliy topshiriqlar menejerning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini, vaziyatli topshiriqlar muammoli sharoitlarda qaror qabul qilish imkoniyatlarini, yarim tuzilgan suhbat esa boshqaruv qarorlarini asoslash tajribasi va kasbiy qarashlarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Kuzatish varaqasi orqali menejerning rejalashtirish, yig’ilish va jamoaviy muhokamalardagi faoliyatini oldindan belgilangan ko‘rsatkichlar asosida qayd etish mumkin. Refleksiv tahlil varaqasi qabul qilingan qarorlarning sabab va natijalarini menejerning o‘zi tomonidan baholashga yo‘naltirilsa, individual rivojlanish xaritasi aniqlangan ehtiyojlarni keyingi kasbiy faoliyat bilan bog’lash imkonini beradi. Ushbu vositalarning har biri muayyan diagnostik vazifani bajaradi, biroq ularni birgalikda qo‘llash turli manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish va baholashdagi biryoqlamalikni kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Shu bilan birga, diagnostik vositalarning ko‘pligi baholash natijalarining ishonchliligini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi. Buning uchun topshiriqlarning mazmuniy mosligi, baholash ko‘rsatkichlarining aniqligi, kuzatuvchilar tomonidan natijalarni bir xil talqin qilish imkoniyati va tashxislash sharoitlarining barqarorligi ta’minlanishi zarur.

Ayniqsa, intellektual salohiyatni baholashda umumiy tavsiflardan foydalanish o‘rniga menejerning muayyan vaziyatdagi kuzatiladigan faoliyatiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Masalan, “menejerning muammolarni hal qilish ko‘nikmasi yuqori” degan xulosani asoslash uchun uning muammoni aniqlashi, kamida bir nechta muqobil yechimni ko‘rib chiqishi, qarorini dalillar bilan tushuntirishi va ehtimoliy natijalarni baholashiga oid ma’lumotlar talab etiladi. Shu sababli har bir diagnostik mezon bo‘yicha baholash mezonlari va darajalarini oldindan belgilash, ularni dastlabki sinovdan o‘tkazish hamda zarur hollarda qayta ishlash metodik ta’minotni takomillashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Baholashning mazkur talablarini amaliyotga tatbiq etish uchun tashxislash jarayonini ketma-ket bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Dastlab tashxislash maqsadi, o‘rganiladigan intellektual ko‘nikmalar va ularning ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi. Keyingi bosqichda menejerlarning kasbiy vazifalariga mos topshiriqlar ishlab chiqilib, kichik guruhda dastlabki sinovdan o‘tkaziladi. Ushbu jarayonda topshiriqlarning tushunarliligi, bajarish uchun ajratilgan vaqt, baholash tartibining aniqligi va natijalarni talqin qilish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Olingan ma’lumotlar asosida diagnostik vositalarga zarur o‘zgartirishlar kiritilib, takomillashtirilgan metodika asosiy tashxislash jarayonida qo‘llanilishi mumkin. Keyingi bosqichda natijalar har bir mezon bo‘yicha alohida tahlil qilinib, menejerning kuchli jihatlari va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalari aniqlanadi. Mazkur bosqichlar o‘rtasidagi izchillik tashxislashni bir martalik baholash tadbiridan kasbiy rivojlanishni rejalashtirishga xizmat qiluvchi metodik jarayonga aylantirish imkonini beradi.

Ushbu bosqichli yondashuvning yakuniy vazifasi tashxislash natijalarini amaliy kasbiy rivojlanish bilan bog’lashdan iborat. Bunda har bir menejer uchun aniqlangan ehtiyojlar asosida individual rivojlanish xaritasi shakllantiriladi. Mazkur xaritada rivojlantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, ularga mos mashg’ulotlar va amaliy topshiriqlar, kutilayotgan natijalar hamda qayta baholash muddati belgilanadi.

Masalan, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarida qiyinchilik kuzatilgan menejer uchun boshqaruv ma’lumotlarini solishtirish va muammolarning sabablarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar tanlansa, refleksiv ko‘nikmalari yetarli namoyon bo‘lmagan menejer uchun qarorlar natijalarini yozma tahlil qilish va faoliyat yuzasidan asosli xulosalar chiqarish mashqlari tavsiya etilishi mumkin. Shu tarzda diagnostika natijalari menejerning umumiy tavsifini tuzish bilangina cheklanmasdan, uning individual kasbiy rivojlanishini tashkil etishga yo‘naltiriladi.

Individual rivojlanish xaritasining amaliy ahamiyati qayta tashxislash natijalari bilan ham bog’liqdir. Dastlabki va keyingi baholash natijalarini qiyoslash menejerning muayyan ko‘nikmalarida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Biroq bunday qiyoslash asosli bo‘lishi uchun diagnostik topshiriqlarning murakkablik darajasi, baholash mezonlari va qo‘llash sharoitlari o‘zaro mos bo‘lishi lozim.

Aks holda natijalardagi farqlar menejerning kasbiy rivojlanishi bilan emas, balki topshiriqlar mazmuni yoki baholash tartibidagi tafovutlar bilan izohlanishi mumkin. Shu sababli metodik ta’minotni takomillashtirishda diagnostik vositalarni muntazam qayta ko‘rib chiqish, baholashdagi ehtimoliy xatoliklarni aniqlash va natijalarni

talqin qilishning yagona tartibini ishlab chiqish muhimdir. Bunda menejerlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, baholashning xolisligini ta'minlash hamda tashxis natijalaridan kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida foydalanish alohida e'tiborni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirishga oid nazariy-metodik tahlillar mazkur jarayonni aniq mezonlar, kuzatiladigan ko'rsatkichlar va kasbiy faoliyatga mos diagnostik vositalar asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Intellektual salohiyatning kognitiv-tahliliy, muammolarni hal qilish, ijodiy-innovatsion, kommunikativ va refleksiv tarkibiy jihatlarini o'zaro bog'liq holda baholash menejerning kasbiy imkoniyatlarini ko'p tomonlama o'rganishga xizmat qiladi.

Bunda tahliliy va vaziyatli topshiriqlar, yarim tuzilgan suhbat, kuzatish varaqasi hamda refleksiv tahlil natijalaridan kompleks foydalanish alohida ahamiyatga ega. Mazkur metodlarning uyg'unligi menejerning faqat nazariy bilimlarini emas, balki real boshqaruv vaziyatlarida namoyon bo'ladigan fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham aniqlash imkonini berishi mumkin. Shu asosda diagnostik mezonlar, metodik vositalar, natijalarni tahlil qilish va individual rivojlanish xaritasini shakllantirish jarayonlarini birlashtiruvchi bosqichli metodik yondashuv taklif etildi.

Taklif etilgan yondashuvning amaliy ahamiyati tashxislash natijalaridan menejerlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos metodik tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Bunda tashxislash bir martalik nazorat tadbiri sifatida emas, balki dastlabki baholash, individual rivojlanish, qayta tashxislash va natijalarni qiyosiy tahlil qilish bosqichlaridan iborat uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Shu bilan birga, diagnostik vositalarning mazmuniy mosligi, ishonchliligi va baholash natijalarining xolisligini amaliy sinov orqali tekshirish metodik ta'minotni takomillashtirishning zarur sharti hisoblanadi.

Kelgusida mazkur yondashuvni turli maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitida tajriba-sinovdan o'tkazish, diagnostik mezonlarning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini aniqlashtirish va qayta baholash natijalari asosida individual rivojlanish dasturlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa menejerlarning intellektual salohiyatini tashxislash natijalarini boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'lash hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbar kadrlarning kasbiy tayyorgarligini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sternberg R. J. Successful Intelligence: How Practical and Creative Intelligence Determine Success in Life. - New York: Plume, 1997. - 303 p. - ISBN 978-0-452-27906-3. - URL: https://openlibrary.org/books/OL671794M/Successful_intelligence.
2. American Educational Research Association, American Psychological Association, National Council on Measurement in Education. Standards for Educational and Psychological Testing. - Washington, DC: American Educational Research Association, 2014. - 230 p. - URL: https://www.testingstandards.net/open-access-files.html.
3. Creswell J. W., Plano Clark V. L. Designing and Conducting Mixed Methods Research. - 3rd ed. - Thousand Oaks: SAGE Publications, 2018. - 520 p. - URL: https://www.sagepub.com/shop/buy-a-book/designing-and-conducting-mixed-methods-research-3-241842.
4. Шамова Т. И., Третьяков П. И., Капустин Н. П. Управление образовательными системами: учебное пособие / под ред. Т. И. Шамовой. - М.: ВЛАДОС, 2002. - 319 с. ISBN 5-691-00476-X. - URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01000908463.
5. American Educational Research Association, American Psychological Association, National Council on Measurement in Education. Standards for Educational and Psychological Testing. - Washington, DC : American Educational Research Association, 2014. - 230 p.
6. Jo'rayev R. H., Turg'unov S. T. Ta'lim menejmenti. - Toshkent: Voris-Nashriyot, 2006. - 266 b. - URL: https://akbt.urdu.uz/uz/books/7485.
7. Jalilova D. U., Xolmo'minova S., Rasulova R., Qurbonova E. Ta'lim menejmentida va ta'limni tashkil qilishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ta'lim sifatiga ta'siri // Economics, Management and Digital Innovation in Education: Modern Trends and Approaches: International Scientific and Practical Conference. - 2024. - 13-mart. - DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10801730

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.